

## O'ZBEKISTON QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA ANDERRAYTERLAR FAOLIYATI TAHLILI

*Ermetov Amirbek Ismailovich*

Xiva shaxar Boxovuz kucha 2 Uy, Mamun NTM

**Annotatsiya:** O`zbekiston fond bozorining yosh bo`lishiga qaramay, uning tarixidan optionlar vo fyuchers bo`yicha aniq bitimlar bilan bog`liq sahifalar joy oldi. Hozirda barcha mamlakatlar ichidagi bozorlarning hamyonboblaridan biri qimmatli qog'ozlar bozori hammaga birdek tushunarli. Shu bilan birga fond birjasida sotiladigan yana bir qimmatbaho qog'oz – aksiya. Ushbu maqolada O`zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorida anderrayterlar faoliyati tahlili haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qimmatli qog'ozlar, iqtisodiyot, bozor, kapital, fond birjasi anderrayting.

Hozirgi vaqtida qimmatli qog'ozlar eng moslashuvchan moliyaviy instrumentlardan biri bo`lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar fuqaro huquqlarining obyekti sifatida tovar-pul munosabatlarni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlatirishga yaqindan yordam beradi. Avvallari, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida qimmatli qog'ozlarning ayrim turlari mulk munosabatlarida ishlatilgan(obligatsiyalar, lotoreya chiptalari, tashqi savdo aylanmasidagi veksellar). Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish qimmatli qog'ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qildi. O'z navbatida ushbu bozor tomonidan taqdim etiladigan barcha imkoniyatlarni o'rganish bu bozorda kapital jalb qilishning zamonaviy usullarini tahlil qilish zaruriyatini ham keltirib chiqardi.

Anderrayting faoliyati (anderrayting) – Emitent va anderrayter (anderrayterlar) o'rtaida tuzilgan shartnomada belgilangan shartlar asosida qimmatli qog'ozlar chiqarishni tashkillashtirish va ularni kafolatli joylashtirilishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish faoliyati. Anderrayter – bu investitsiya vositachisi yoki anderrayting faoliyatini olib boruvchi tijorat banki. Bank qarz mablag'lariga muhtoj bo'lgan

korxonalarga korporativ qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlarni taklif etadi. Shu maqsadda bank mijozga kompleks yondoshishni taklif etadi: qimmatli qog‘ozlar chiqarishning maqbul parametrlarini tanlashdan boshlab, mijozlar tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasini tayyorlash, muomalaga chiqarish va emissiyani investorlar o‘rtasida joylashtirishgacha bo‘lgan xizmatlar. Emitent — emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan qimmatli qog‘ozlarning egalari oldida majburiyatları bo‘lgan yuridik shaxs; qimmatli qog‘ozlar — mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadigan hujjat; investitsiya memorandumi — emitent haqida barcha zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hamda qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish narxi to‘g‘risidagi axborotlarni va bitim tafsilotlarini ko‘rsatmaydigan investorlarga taqdim etish uchun oldindan tayyorlangan hujjatlar to‘plami; anderrayter faoliyati (anderrayting) — emitent va anderrayter (anderrayterlar) o‘rtasidagi shartnomada belgilangan shartlar asosida emitent qimmatli qog‘ozlarini chiqarilishini tashkillashtirish va/yoki kafolatli joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish faoliyati; anderrayter — anderrayting faoliyatini amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi yoki tijorat banki.

Mamlakatlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oldini olish maqsadida, institutsional investorning ta’sischilari va mansabdar shaxslari investitsiya qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qiluvchi organ tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar, o‘zining investitsiya ob‘ekti bilan affillanganligi to‘g‘risida axborot berishi kerak. Institutnsional investorlar qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiyalarni amalga oshirishda quyidagilarni bajarishlari shart: a) qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilik va monopoliyaga qarshi qaratilgan qonun hujjatlari, shuningdek, mazkur Nizom talablariga rioya qilish; b) investitsiya tavakkalchiligi to‘g‘ri (adekvat) baholashni amalga oshirish va samarali investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy, texnik, axborot resurslari va malakali xodimlarning mavjudligini ta‘minlash; v) o‘zlik mablag‘lari (kapitallari)ning va boshqa moliyaviy

ko'rsatkichlarning etarliligi va qonunchilikda o'rnatilgan majburiy me'yorlarga muvofiqligini ta'minlash; g) o'z xodimlarining qonunchilikda o'rnatilgan malakaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash. Institutsional investor o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda o'z mijozlarining manfaatlariga rioya etishi lozim. Institutsional investor o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda o'z mijozlarining manfaatlariga rioya etishi lozim. Investitsiya aktivlari bo'yicha zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida institutsional investorlar qonunchilikda o'rnatilgan me'yoriy talablarga rioya qilgan holda ushbu aktivlarni diversifikatsiyasini ta'minlaydilar. Institutsional investorlar axborotlarining shaffofligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborotlarni oshkor etish orqali ta'minlanadi. Institutsional investorning ijroiya organi institutsional investorning ta'sischilari oldida, har yili qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar to'g'risida hisobot berishga majbur. Institutsional investorning xodimlari va boshqaruv organi a'zolari tomonidan xizmat va maxfiy axborotlardan foydalanish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi. Institutsional investor tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan bajarilgan operatsiyalar bo'yicha hujjatlarning saqlanilishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Korporativ qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalarning sifatini ta'minlash maqsadida, institutsional investor uning boshqaruv organi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan investitsiya siyosati to'g'risidagi nizomni ishlab chiqadi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida, institutsional investorlar o'z aktivlarini ishonchlilik, diversifikatsiyalik, qaytarishlilik, foydalilik va likvidlilik tamoyillari asosida investitsiya qiladilar. Institutsional investorning bitta korxona ustav kapitaliga, shuningdek, ushbu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qilinadigan qo'yilmalari, qonun hujjatlariga hamda yuqorida keltirilgan investitsiya siyosati to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Institutsional investor korporativ qimmatli qog'ozlarning xillari va turlarini hamda ularga rejalashtirayotgan investitsiyalarning minimal darjasini miqdorini mustaqil belgilaydi. Bunda, korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning minimal darjasini miqdori institutsional investorning vakolatli organi tomonidan uning investitsiya siyosati to'g'risidagi nizomiga muvofiq amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar muomalasini amalga oshirishda foydalaniladigan shartnoma, hisobot, buyurtma va xabarnomalar hamda birjaga oid boshqa hujjalalar namunalari. Fond birjasini birja oldi-sotdisi vaqtida bitimlar tuzish, bitimlarni tekshirib ko`rish va ular yuzasidan hisob-kitob qilish tartibini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Fond birjalari va fond bo`limlari O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olingan qimmatli qog'ozlar muomalasi bitimlarini amalga oshirish nizomlari va ichki qoidalari, fond birjasini ustavi (fond bo`limi to`g'risidagi Nizom) asosida ish tutadilar. Fond birjasida amallarni uning a`zolarigina amalga oshira oladilar. Fond birjasini faoliyatining pul ta`minoti:

- fond birjasini aksiyalarini va paylarini sotish;
- fond birjasidagi brokerlik o`rinlarini sotish;
- fond birjasini a`zolari muntazam to`lab boradigan a`zolik badallari;
- birja bitimlarini ro`yxatdan o`tkazishda olinadigan yig`imlar;
- qimmatli qog'ozlar muomalasida vositachilik qilishda olinadigan komission haq;
- birja ustavida nazarda tutilgan axborot xizmati va boshqa oid xizmatlar ko`rsatishdan keladigan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasida davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi qoshida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini takomillashtirish va nazorat qilish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (30 mart 1996 y) binoan maxsus markaz tashkil etildi. Markazning o'z faoliyatlarini doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat`iy nazar, xo'jalik birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek O`zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlarining fuqarolari tomonidan bajarilishi majburiydir. Nisbatan katta hududlarga ega bo`lgan mamlakatlarda, odatda qimmatli qog'ozlarning mintaqaviy yoki mahalliy bozorlari shakllanadi. O`zbekistonda masalan, qimmatli qog'ozlarning local bozorlari qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilishni Qoraqolpog'iston Respublikasi, Toshkent shaxri va 12 ta viloyatdan iborat bo`lgan ma'muriy-xududiy tuzilmalar ixtiyoriga topshirish tamoyili bilan namoyon etilgan. Bu mintaqalarning har birida davlat boshqaruvi idoralari, fond birjalarining bo`linmalari, qimmatli qog'ozlar bozori umumiy va maxsus infratuzilmasining muassalari mavjud.

Jahon amaliyotidagi mavjud tamoyil — birja listingiga kirgan xo'jalik sub'ektlarining aksiyalarini sotish jarayonining tatbiq etilishi, savdolarda xalqaro

talablarga mos bo'lgan standartlarning qabul qilinishi, aksiyalarni xorijiy investorlarga chet el valyutasida sotish bo'yicha maydonchaning ishga tushirilgani, birja indeksi joriy qilinib, fond bozori holati aks ettirilgan ma'lumotlarning ommaviy axborot vositalari orqali muntazam e'lon qilinishining boshlanishi va birja veb-saytining ishlab chiqilgani "Toshkent" respublika fond birjasi faoliyatidagi muhim voqelar sirasiga kiradi. Shu o'rinda salohiyatli investorlar hamda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini to'liq ma'lumotlar bilan doimiy ravishda xabardor qilib borishda fond birjasi veb-saytining alohida rolini ta'kidlash joiz. Zero, mazkur sayt harkuni o'zaksiyalarini birlamchi va ikkilamchi bozorda joylashtiradigan listing korxonalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan hamda, ular aksiyalarining joriy kotirovkalari bilan tanishtirib boradi. Bundan tashqari fond bozori indeksining kunlik sur'atlari e'lon qilinadi. Shuningdek, saytdan sohaga oid qonunchilik haqidagi boshka ma'lumotlarni ham olish mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining hozirgi rivojlanish bosqichida jadal odimlayotgani dalolati sifatida ayrim raqamlarni keltirib o'tish joizdir. Bular asosan, iqtisodiyotning real sektori korxonalari, energetika, metallurgiya, qurilish va agrosanoat tizimidagi xo'jalik sub'ektlari, shuningdek, sug'urta kompaniyalari hamda tijorat banklaridir. Shu kabi ko'rsatkichlar miqyosini yanada oshirish maqsadida fond birjasida mavjud imkoniyatlar ishga solinmoqda. Ayniqsa, joylarda qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari mavqeini kengaytirish, hududlarda brokerlik idoralari sonini ko'paytirish, qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan mamlakatimizda muhim strategik axamiyatga ega bo'lgan va likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar aksiyalarining fond bozoridagi ko'lамиni oshirish masalalariga asosiy e'tibor haratilmoqda. Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori barcha rivojlanayotgan fond bozorlari kabi katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ulardan birinchisi qimmatli qog'ozlarning likvidligidir. Shuning uchun bozorning likvidligini oshirishni tashkil etishni takomillashtirish, birja va birjadan tashqari bozorlar tuzilmasini rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar muomalasi va ularning xarajatlarini kamaytirish, axborot olish imkoniyatlarini oshirish zarur. Birinchi navbatda fond birjasi ishlarini Jahon standartlari darajasiga ko'tarish, qimmatli qog'ozlar listingi va kotirovkasi tartibini joriy etish, fond bozorini asosiy tuzilmalari:

birjalari, depozitariylar va hisob - kitob kliring tashkilotlarining avtomatlashtirilgan aloqa tizimlarini yaratish zarur. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni ko'p jixatdan fond bozorini rivojlanishiga bog'liqbo'libqolmoqda. Moliyaviy vositachilar aktivligini oshirish, ular xarakatining samarali mexanizmlarini ishga solmasdan turib, ikkilamchi bozorni shakllantirish mumkin emas. Bu o'z navbatida fond bozorida investitsiya vositachilari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Respublikamizda investitsiya vositachilari faoliyatining huquqiy asoslari va ular faoliyatining kafolatlari yaratilgan bo'sada, bu sohada bir qator muammolar mavjud.

Xulosa: O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini mustahkamlash va rivojlantirishning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, jumladan, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorini muassasaviy rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini takomillashtirish, fond vositalarining turlarini kengaytirish masalalari ko'rib chikilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
2. Butikov I.L Qimmatli qog'ozlar bozori. – Toshkent: Konsauditinform, 2001. - 472 b
3. Azizov U.O'. (2020) "Kapital bozori: Iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi drayver" <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/6939-kapital-bozoriitisishtni-ta-minlovchidrajver>
4. Xojimatov R.X. (2019) Fond bozorini rivojlanish xususiyatlari va istiqbolli bank vositalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel